	Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyeva, Normurodova Farishta Begmurod qizi, Xolmurodova Dilrabo Panji qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi	
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi ...	541
	Norqulova Ma'mura Husniddin qizi	
	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati.....	546
	Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li	
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi.....	550
	Qambarova Naziraxon Barxonovna	



An'anaviy oila sharoitida kelinlarda noadaptiv psixologik himoya mexanizmlarini kamaytirish bo'yicha psixokorreksion yondashuv	554
Qobilova Nasiba Ismatjon qizi	
Ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	557
Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li, Jumayeva Hulkar Panji qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	562
Ravshanova Gulnoza Burxonovna, Turdiboyeva Umida Ravshan qizi, Norjigitova Rohila Abduvoid qizi	
Ingliz, o'zbek va rus tillari foydalanuvchilari uchun lug'atlar yaratishning lingvistik va amaliy asoslari	565
Raxmonova Sardora Muminjonovna	
Jismoniy tarbiya darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari	569
Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich	
Sutemizuvchilarning kelib chiqishi va xilma-xilligi	573
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Sattorova Sanobar Boboqul qizi, Salimova Shahrizoda Ikromjon qizi	
Raqamli muhitda voyaga etayotgan o'spirinlarda empatiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning neyropedagogik xususiyatlari	578
Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining o'rni	583
Sharipova Nodira Ilxom qizi	
Digital Educational Technologies in Improving the Quality of Teaching: Methods and Practical Implementation	588
Tashpulatova Nafisa Bakhtiyarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish	591
To'laboyeva Irodaxon Maxammadali qizi	
SRDM modeli orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM kompetensiyalari va Computational Thinking ko'nikmalarini shakllantirish	595
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari	600
Toshtemirova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Development of an Integrated Learning Module Based on Digital Technologies in the Educational Process	604
Umirov Ilkhom Iskandar ugli	
Muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish	608
Uraimov Sanjar Ruzimatovich, Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi	
Boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning bugungi holati va muammolari tahlili	612
Uroqova Yorqin qizi	
Inklyuziv ta'lim muhiti asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	615
Xamidova Zarina Iskandar qizi	
Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari	619
Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi	
Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari	623
Xasanova Nilufar Raxmatovna	
Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi	628
Xaydarova Xilola Raximberdiyevna	
Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования	631
Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли	
Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni	637
Mannanova Maftuna Fazliddin qizi	
Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati	641
Adamatov Anvar Ablaqulovich	
Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar	645
Uskanov Kaxramon Xalikulovich	
Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish	648
Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIYANI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI

G'aybullayeva Anora Tolib qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogik Universiteti
IV-kurs talabasi, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi

Ilmiy rahbar: S. X. Jalilova
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi (3–7 yosh) bolalarda agressiv xulq-atvorning psixologik mohiyati, kelib chiqish omillari hamda uni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy psixologik texnologiyalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o'yin terapiyasi, art-terapiya, kognitiv-xulqiy terapiya, relaksatsiya texnikalari hamda oilaviy psixoterapiya yondashuvlarining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalarning bolalarda emotsional barqarorlikni shakllantirish, xulq-atvorni ijobiy yo'naltirish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalari hamda oilalarda agressiv xulq-atvor profilaktikasiga yo'naltirilgan kompleks psixologik dasturlarni ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: agressiya, maktabgacha yosh, psixologik texnologiyalar, o'yin terapiyasi, art-terapiya, emotsional tartibga solish, xulq-atvor korreksiyasi, relaksatsiya texnikalari, oilaviy psixoterapiya.

Abstract: This article analyzes the psychological nature of aggressive behavior in preschool children aged 3–7 years, the factors contributing to its development, and modern psychological technologies aimed at its prevention and correction from both theoretical and practical perspectives. The study examines the effectiveness of play therapy, art therapy, cognitive-behavioral therapy, relaxation techniques, and family psychotherapy. Particular attention is paid to the role of these approaches in developing emotional stability, promoting positive behavioral patterns, and enhancing children's social adaptation. The findings of the study provide a scientific and practical basis for developing comprehensive psychological programs aimed at preventing aggressive behavior in preschool educational institutions and families.

Key words: aggression, preschool age, psychological technologies, play therapy, art therapy, emotional regulation, behavior correction, relaxation techniques, family psychotherapy.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения проанализированы психологическая сущность агрессивного поведения у детей дошкольного возраста (3–7 лет), факторы его возникновения, а также современные психологические технологии, направленные на его коррекцию и профилактику. В исследовании рассматривается эффективность игровых методов терапии, арт-терапии, когнитивно-поведенческой терапии, техник релаксации и семейной психотерапии. Особое внимание уделено значению данных подходов в формировании эмоциональной устойчивости, развитии социально адаптивного поведения и снижении проявлений агрессии у детей. Результаты исследования могут служить научно-практической основой для разработки комплексных психологических программ профилактики агрессивного поведения в дошкольных образовательных организациях и семьях.

Ключевые слова: агрессия, дошкольный возраст, психологические технологии, игровая терапия, арт-терапия, эмоциональная регуляция, коррекция поведения, техники релаксации, семейная психотерапия.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvor muammosi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Z. Freyd, L.S. Vigotskiy, A. Bandura kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari agres-siyani biologik, ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etadi. 3–7 yosh davri ontogeneznining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ushbu davrda shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv hamda emotsional tartibga solish mexanizmlari faol rivojlanadi. Shu sababli mazkur bosqichda bolalarga to'g'ri psixologik yondashuv va ko'mak ko'rsatish ularning ijtimoiy moslashuvi hamda sog'lom xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Dodge, Coie, 1987; Loeber, 1990).



O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida bolalarning psixologik salomatligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyani bartaraf etishga qaratilgan psixologik texnologiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning samaradorligini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida agressiya tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ushbu tushunchaning asosiy nazariy talqinlari agressiyaning kelib chiqishi va namoyon bo'lish mexanizmlarini turlicha izohlaydi. Jumladan, instinktiv nazariya vakillari Z. Freyd va K. Lorents agressiyani biologik jihatdan belgilangan tabiiy instinkt sifatida talqin qiladilar. Freyd agressiyani "o'lim instinkti" (Thanatos) bilan bog'lasa, Lorents uni tirik organizmlarning moslashuv mexanizmlaridan biri sifatida izohlaydi. Frustratsiya–agressiya nazariyasi tarafdorlari Dollard va Miller agressiyani frustratsiya natijasida yuzaga keluvchi psixologik holat sifatida baholaydilar.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra esa agressiv xulq-atvor kuzatish va taqlid qilish jarayonida shakllanadi hamda bolalar kattalarning xulq-atvorini model sifatida qabul qilib, uni ijtimoiy muhit orqali o'zlashtiradilar. L. Berkowitzning kognitiv-neo-assotsiatsion nazariyasida agressiya noqulay his-tuyg'ular va kognitiv talqinlarning o'zaro bog'liqligi asosida yuzaga keluvchi psixologik jarayon sifatida tavsiflanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning jismoniy agressiya, verbal agressiya, munosabat agressiyasi hamda asbobiy agressiya kabi asosiy ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos psixologik mexanizmlarga ega. Shu sababli agressiv xulq-atvorni korreksiya qilishda differensial yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bolalardagi agressiv xulq-atvor shakllanishiga biologik, oilaviy, ijtimoiy va media omillari kompleks tarzda ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, neyrotransmitterlar faoliyati, temperament xususiyatlari va gormonal jarayonlar agressiyaning biologik asoslarini tashkil etsa, oiladagi tarbiya usullari, emotsional muhit hamda ota-onalar bilan munosabatlar bolaning xulq-atvor rivojlanishida muhim omil hisoblanadi (Patterson, 1982; Baumrind, 1991).

Shuningdek, tengdoshlar bilan muloqot jarayoni, ta'lim muassasasidagi psixologik muhit hamda raqamli axborot vositalarining ta'siri ham bolalarning emotsional holati va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, media makonidagi zo'rvonlik elementlariga boy kontent agressiv xulq-atvor stereotiplarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkinligi ilmiy manbalarda qayd etilgan (Anderson, Bushman, 2001).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan psixologik texnologiyalarni o'rganish uchun nazariy tahlil, qiyosiy tahlil hamda psixologik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida agressiyaning psixologik mohiyati va kelib chiqish omillari bo'yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, o'yin terapiyasi, art-terapiya, kognitiv-xulqiy terapiya, relaksatsiya texnikalari va oilaviy psixoterapiyaning samaradorligi qiyosiy jihatdan baholandi. Tadqiqot jarayonida bolalarning emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlashda kuzatuv va suhbat usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida agressiv xulq-atvorni kamaytirishga qaratilgan kompleks psixologik yondashuvlarning samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin terapiyasi (Play Therapy) maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali psixologik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv V. Axline (1947), G. Landreth (2002) hamda boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida shakllangan. O'yin bolaning tabiiy "tili" sifatida namoyon bo'lib, uning yordamida bola o'z ichki dunyosini ifodalaydi, turli konfliktli vaziyatlarni anglaydi va yangi xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Agressiv xulq-atvoriga ega bolalar bilan ishlashda direktiv bo'lmagan o'yin terapiyasi, rolli o'yinlar, qo'g'irchoq terapiyasi hamda qum terapiyasi kabi shakllardan foydalaniladi. Ushbu metodlar bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, empatiya hissini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'yin terapiyasi agressiv xulq-atvor ko'rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirib, bolalarda ijobiy kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi (Ray, 2011; Bratton va boshq., 2005).

Art-terapiya san'at vositalari orqali psixologik yordam ko'rsatishga asoslangan zamonaviy texnologiya bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional holatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, izoterapiya yordamida bolalar o'z his-tuyg'ularini tasviriy faoliyat orqali ifoda etadilar, musiqa terapiyasi esa emotsional barqarorlikni shakllantirish va ichki zo'riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Drama terapiyasi orqali bolalar ertak qahramonlari va turli obrazlarni ijro etish jarayonida empatiya, ijtimoiy moslashuv hamda muqobil xulq-atvor modellarini o'rganadilar.

Kognitiv-xulqiy terapiya (KXT) A. Beck va A. Ellis nazariyalari asosida shakllangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan shaklda qo'llaniladi. Ushbu yondashuvning asosiy mazmuni noto'g'ri kognitiv tasavvurlar emotsional va xulq-atvor muammolarini yuzaga keltirishini tushuntirishga qaratilgan. Bolalar uchun moslashtirilgan dasturlarda emotsiyalarni tanish va nomlash, "To'xta va o'yla" texnikasi, muammolarni hal qilish ko'nikmalari hamda ijobiy kuchaytirish tizimidan foydalaniladi. Mazkur metodlar bolalarda impulsiv reaksiyalarni nazorat qilish, ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirish va emotsional boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Relaksatsiya va hissiyotni boshqarish texnikalari agressiv xulq-atvoriga moyil bolalardagi psixofiziologik zo'riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Diafragmal nafas mashqlari, progressiv mushak relaksatsiyasi hamda mindfulness elementlari bolalarda o'zini boshqarish, xotirjamlik va emotsional muvozanatni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarga moslashtirilgan obrazli mashqlar ularning mashg'ulotlarga qiziqishini oshirib, psixologik ta'sir samaradorligini kuchaytiradi.

Oilaviy psixoterapiya va ota-ona treninglari agressiyani bartaraf etishda kompleks yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari bolalar bilan olib boriladigan psixologik ishlarning samaradorligi oila bilan hamkorlikda amalga oshirilganda yanada yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Parent Management Training (PMT) dasturi ota-onalarga agressiv xulq-atvorning sabablari, bolalar bilan samarali muloqot usullari, oilaviy qoidalarni shakllantirish hamda stressni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatishga qaratilgan. Mazkur yondashuv oiladagi sog'lom psixologik muhitni mustahkamlash va bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda asosiy psixologik texnologiyalar hamda ularning samaradorlik darajalari qiyosiy tahlil asosida keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: **Psixologik texnologiyalarning qiyosiy tahlili¹**

Texnologiya	Asosiy usullar	Samaradorlik darajasi
O'yin terapiyasi	Rolli o'yinlar, qo'g'irchoq terapiyasi, erkin o'yin	Yuqori (80–85 %)
Art-terapiya	Rasm chizish, musiqa terapiyasi, qum terapiyasi, drama terapiyasi	Yuqori (75–82 %)
Relaksatsiya texnikalari	Nafas mashqlari, progressiv relaksatsiya	O'rtacha–yuqori (70–78 %)
Kognitiv-xulqiy terapiya	Emotsiyalarni boshqarish, ijobiy kuchaytirish	Yuqori (78–85 %)
Oilaviy psixoterapiya	Ota-ona treningi, oilaviy seanslar	Yuqori (80–88 %)

Agressiv xulq-atvorni bartaraf etishda yuqori samaradorlikka erishish uchun kompleks va ko'p bosqichli psixologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dastlab diagnostika bosqichida (1–2 hafta) bolaning agressiya turi, darajasi hamda uning kelib chiqish omillari kuzatuv, standartlashtirilgan testlar, jumladan, "Qo'llar testi", bolalar uchun moslashtirilgan Rosenzweig frustratsiya testi va ota-onalar so'rovnomalari asosida aniqlanadi. Shundan so'ng individual korreksiya bosqichida (4–6 hafta) bolalar bilan art-terapiya, o'yin terapiyasi va relaksatsiya texnikalariga asoslangan individual psixologik seanslar o'tkaziladi.

Mazkur mashg'ulotlar haftasiga 2–3 marotaba, 30–45 daqiqa davomida tashkil etiladi. Oilaviy aralashuv bosqichida (4–8 hafta) ota-onalar bilan hamkorlikda oiladagi psixologik muhitni yaxshilash, izchil tarbiyaviy yondashuvni shakllantirish va muloqot samaradorligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Guruhli ishlash bosqichida (4–6 hafta) esa tengdoshlar bilan muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish hamda hamkorlikka asoslangan o'yin seanslari tashkil etiladi.

Monitoring va qo'llab-quvvatlash bosqichi doimiy ravishda olib borilib, erishilgan natijalarni mustahkamlash, bolalarning ijobiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlash va zarur hollarda qo'shimcha psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvorni korreksiya qilishda kompleks psixologik texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan yondashuvlar orasida o'yin terapiyasi bolaning tabiiy kommunikativ faoliyatiga tayansa, art-terapiya his-tuyg'ularni verbal bo'lmagan shaklda ifodalash imkonini yaratadi. Kognitiv-xulqiy terapiya esa bolalarda emotsional boshqaruv, ijtimoiy moslashuv hamda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

1 Muallif ishlanmasi.



Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy psixoterapiya bilan uyg'unlashtirilgan individual psixologik seanslar samaradorligi 88 % gacha yetishi aniqlangan. Shuningdek, 3–4 yosh davrida amalga oshirilgan erta psixologik aralashuv 6–7 yoshdagi kechroq aralashuvga nisbatan yuqori natijadorlikni namoyon etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish va ularning emotsional barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, psixologik texnologiyalarni milliy-madaniy xususiyatlarga moslashtirilgan holda qo'llash ularning amaliy samaradorligini yanada oshiradi.

Kelgusida O'zbekiston sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun agressiv xulq-atvor profilaktikasiga qaratilgan ilmiy asoslangan kompleks psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik profilaktika dasturlarini muntazam tashkil etish, tarbiyachilar hamda ota-onalar uchun treninglar o'tkazish, o'yin terapiyasi, art-terapiya va relaksatsiya mashqlaridan keng foydalanish bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bolalarning psixologik holatini erta diagnostika qilish va individual yondashuv asosida psixologik yordam ko'rsatish ijobiy natijalarni ta'minlaydi. Oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish hamda bolalarning media muhit bilan o'zaro munosabatini nazorat qilish ham agressiv xulq-atvor profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson C.A., Bushman B.J. Effects of violent video games on aggressive behavior, aggressive cognition, aggressive affect, physiological arousal, and prosocial behavior: A meta-analytic review // *Psychological Science*. – 2001. – Vol. 12, № 5. – P. 353–359.
2. Axline V.M. *Play Therapy: The Inner Dynamics of Childhood*. – Boston: Houghton Mifflin, 1947.
3. Bandura A. *Social Learning Theory*. – New Jersey: Prentice Hall, 1977.
4. Baumrind D. The influence of parenting style on adolescent competence and substance use // *Journal of Early Adolescence*. – 1991. – Vol. 11, № 1. – P. 56–95.
5. Bratton S.C., Ray D., Rhine T., Jones L. The efficacy of play therapy with children: A meta-analytic review // *Professional Psychology*. – 2005. – Vol. 36, № 4. – P. 376–390.
6. Dodge K.A., Coie J.D. Social-information-processing factors in reactive and proactive aggression in children's peer groups // *Journal of Personality and Social Psychology*. – 1987. – Vol. 53, № 6. – P. 1146–1158.
7. Kazdin A.E. *Parent Management Training: Treatment for Oppositional, Aggressive, and Antisocial Behavior in Children and Adolescents*. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
8. Landreth G.L. *Play Therapy: The Art of the Relationship*. 2nd ed. – New York: Brunner–Routledge, 2002.
9. Loeber R. Development and risk factors of juvenile antisocial behavior and delinquency // *Clinical Psychology Review*. – 1990. – Vol. 10, № 1. – P. 1–41.
10. Patterson G.R. *Coercive Family Process*. – Oregon: Castalia Publishing, 1982.
11. Ray D.C. *Advanced Play Therapy*. – New York: Routledge, 2011.
12. Vigotskiy L.S. *Sobranie sochineniy. Tom 5: Osnovy defektologii*. – Moskva: Pedagogika, 1983.
13. Xoliqov A.A. *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi*. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2019.
14. Yusupova N.I. Bolalardagi agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari // *O'zbekiston psixologiya jurnali*. – 2021. – № 3(18). – B. 45–52.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.